

Ta’lim –tarbiya jarayonida Buxoro jadidlarining ma’naviy merosidan foydalanish

Qurbanova Nigina Boboxo‘jayevna

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston Jadidchilik harakatining buyuk namoyondasi Sadriddin Ayniy ilmiy merosini o‘rganishda Buxoro madrasalaridagi ta’lim tizimi va ulardagi talabalarining ijtimoiy-ma’naviy ahvoli haqida tarixiy manbaalarga tayangan holda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Sadriddin Ayniy, Esdaliklar, Buxoro madrasalari, ta’lim tizimi, ijtimoiy muhit, tanqidiy tahlil, vaqf, talabalar hayoti, maktab, darslik, jadid maktabi, islohot, o‘quvchilar, mustaqillik, madrasa, ta’lim, tarbiya, ma’rifat.

Использование духовного наследия Бухарских джадидов

в учебно-воспитательном процессе

Курбонова Нигина Бобоужаевна

Независимый исследователь

Аннотация: эта статья освещает научное наследие Садриддина Айни, великого деятеля Туркестанского джадидистского движения, опираясь на исторические источники о системе образования в бухарских медресе и социально-духовном положении студентов в них.

Ключевые слова: Садриддин Айни, воспоминания, бухарские медресе, система образования, социальная среда, критический анализ, Вакф, студенческая

жизнь, школа, учебник, джадидская школа, реформа, ученики, независимость, медресе, образование, воспитание, просвещение.

The use of the spiritual heritage of Bukhara jadids in the educational process

Kurbanova Nigina Bobokhoyevna

Independent seeker

Annotation: In this article, the great exponent of the Turkestan Jadidism movement, Sadriddin Ayniy, in his study of his scientific heritage, is covered with reference to historical sources about the educational system in Bukhara madrasas and the socio-spiritual situation of students in them.

Keywords: Sadriddin Ayniy, memorabilia, Bukhara madrasas, education system, social environment, Critical Analysis, Foundation, Student Life, school, textbook, jadid School, Reform, students, independence, madrasa, education, upbringing, enlightenment.

Kirish

Buxoro jadidchilik harakatining mashhur vakillaridan biri, taniqli ma'rifatparvar, yozuvchi, olim va davlat arbobi Sadriddin Ayniy (to'liq ismi-Sadriddin Saydmurodzoda Ayniy) hozirgi Buxoro viloyatining G'ijduvon tumaniga qarashli Soktare qishlog'ida 1878-yili 27- aprelda (keyingi yil hisobi bo'yicha) kambag'al dehqon oilasida tug'ilgan. Birinchi ma'lumotni olti yoshidan boshlab o'z qishlog'idagi boshlang'ich maktabda oladi. U 12 yoshga to'lganda otaonasi vabo kasalligidan vafot etib, Buxoro shahrida yashovchi katta akasining qo'lida tarbiyalanadi. U keyinchalik Mir Arab (1890-91), Olimxon (1892-93), Badalbek (1894-96), Hoji Zohid (1896-99), Ko'kaldosh (1899-1900) madrasalarida tahsil olgan. Sadriddin Ayniy O'rta Osiyo xalqlari tarixining ulkan bilimdoni sifatida "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar" (1926), "Buxoro mang'it amirlarining tarixi" (1921) nomli tarixiy asarlar yozdi. Shuningdek, "Odina", "Tojik adabiyotidan namunalar"

(1926), “Qul bobo yoxud ikki ozod” (1928) kabi ocherk, qissa, hikoyalari chop etildi. Uning “Buxoro jallodlari” (1922), “Sudxo‘rning o‘limi” nomli qissalari, tojik tilida “Doxunda” (1927-29), o‘zbek tilida “Qullar” (1934) romanlari, shuningdek to‘rt qismdan iborat “Xotiralar” (1949-54) nomli ijtimoiy-madaniy asarlari yaratildi. Uning “Buxoro” (1951) nomli kitobi sobiq ittifoq davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi. Uning bir qancha kitoblari nemis, polyak, venger, xitoy, fransuz, rumin, hind, chek va boshqa tillarga tarjima qilindi. Uning “Eski maktab” (1935) asarida eski maktablardagi o‘qish va o‘qitish jarayonlari haqida so‘z boradi. Yigirmanchi yillarda nashr etilgan bir qator satirik asarlari, “Yana bu qaysi go‘rdan chiqdi”, “Puling halol bo‘lsa to‘y ber” (1924), “Mashrab bobo”, “Yo to‘nim” (1925), “Bilganim yo‘q”, “Kengash” (1926) kabi o‘zbek tilidagi feletonlari, satirik she’r va maqolalari, ayniqsa “Sudxo‘rning o‘limi” nomli satirik qissasi yozuvchining mohir satirik ekanligini ko‘rsatdi. Muqanna va Temurmalik boshchiligidagi xalq ozodlik qo‘zg‘olonini tasvirlagan adabiy-tarixiy ocherklar yozdi. Olim o‘zbek va tojik adabiyotining klassik yozuvchilarining ijodini o‘rganish bo‘yicha ham katta ilmiy izlanishlar olib bordi. “Firdavsiy va uning “Shohnoma”si haqida” (1934), “Kamol Xo‘jandiy”, “Shayxurrais Abu Ali ibn Sino” (1939), “Ustoz Rudakiy” (1940), “Shayx Muslihiddin Sa’diy Sherziy” (1942), “Alisher Navoiy” (1948), “Zayniddin Vosifiy” (uning “Badoye’ ul-vaqoye” asari haqida), “Mirzo Abdulqodir Bedil”, Ahmad Donish, Muqimiy, G‘afur G‘ulom, Sayid Nazar kabi jami 200 dan ortiq buyuk sharq ziyolilari haqidagi ilmiy tadqiqot ishlarini olib borib, pedagogika tarixi va pedagogic qarashlar taraqqiyotiga, ilm-fan rivojiga katta hissa qo‘shti. Shuningdek, u adabiyotshunos, tilshunos, sharqshunos olim sifatida “Fors va tojik tillari haqida”, “Tojik tili” kabi ilmiy ishlari tojik tilshunosligiga qo‘shilgan ulkan hissa bo‘ldi. Ushbu ilmiy mehnatlarini hisobga olib Leningrad davlat universitetining Ilmiy Kengashi unga filologiya fanlari doktori (1948) ilmiy darajasini berdi.

S.Ayniy dunyoqarashining shakllanishi va rivojlanishiga o‘zining yozib ko‘rsatishicha mashhur shoir Ahmad Donish, ozarbayjon adibi Xo‘ja Marog‘iy, boshqa jadid ma’rifatparvarlari asarlarining ta’siri katta bo‘ladi [1.153]. Sadriddin Ayniy o‘zining

yuqorida nomi tilga olingan asarining “Ilmiy inqilobga tayyorgarlik” bo‘limida keltirishicha, Ahmad Donish (1827-1897) bilan shaxsan uchrashib, ko‘rishmasa ham, uni “Navodir ul vaqoe” asari orqali bilishini, bu asar uning dunyoqarashida katta o‘zgarishlarning bo‘lishiga sababchi bo‘lganligini, shu sababli ham bu olimni ustoz deb bilishini keltiradi. Uning ijodi 1896-yili ilk bor “Ayniy” (Ko‘ragan) degan taxallus bilan chop etilgan “Roza” nomli she’ri bilan boshlanib, uning “Guli surx” (Qizil gul) nomli birinchi asari 1897-yili 19 yoshida nashr etilgan. U bu davrda mehnatkash xalqning og‘ir ahvoliga yagona sabab - uning savodsiz, ma’rifatsiz ekanligi deb tushundi. Shuning uchun u tez orada o‘lkadagi jadidchilik oqimining faol a’zosi bo‘lib yetishdi va yangi usuldagagi maktab ochish uchun ko‘p kuch sarflaydi. U “Yosh buxoroliklar” harakatining faol a’zosi sifatida aholini savodli qilish, iqtidorli yoshlarni chet ellarga o‘qishga yuborish, yangi usuldagagi jadid maktablarini ochish bo‘yicha katta xizmatlar qilgan. Sadriddin Ayniy o‘zining “Esdaliklar” asarida Buxoro madrasalarining ichki hayotini, ta’lim mazmuni va ijtimoiy ahvolini bevosita guvoh sifatida, chuqur kuzatuvchi nigohi orqali realistik va tanqidiy ruhda tasvirlab beradi. Ayniy bu madrasalarni nafaqat tashqi ko‘rinishi, balki ularning ichki mohiyati, ya’ni tor, ziyo yetishmaydigan hujralari, dars o‘tishdagi sustkashlik, ilmsizlik va ko‘r-ko‘rona yodlashga asoslangan tizimi orqali chuqur tanqid qiladi. Bu holat aynan jadidchilik harakatining ta’lim islohoti yo‘lidagi kurashlariga turtki bo‘lgan muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Shu jihatdan, ushbu maqolada Sadriddin Ayniyning asarlari, xususan “Esdaliklar” asari orqali Buxoro madrasalarining ijtimoiy-ma’naviy va ta’limiy holati tahlil qilinadi. Ayniyning tanqidiy yondashuvi orqali o‘sha davr Buxoro jamiyatining ta’lim tizimi, ijtimoiy ziddiyatlari va tarixiy taraqqiyotining og‘riqli nuqtalari ochib beriladi. Sadriddin Ayniydan tashqari bir qator tarixchi va tadqiqotchilar ham Buxoro madrasalarining holati haqida muhim ma’lumotlar bergen. Muhammad Ali Baljuvoniy “Tarixi nofeiy” asarida Buxoro amirligida yuzlab madrasa mavjud bo‘lganini va ularning ta’lim tizimidagi kamchiliklarini qisqacha bayon qiladi. U, xususan, aniq fanlarning o‘tilmasligi madaniy va siyosiy orqada qolishga sabab bo‘lganini ta’kidlaydi. Jadid mutafakkiri Sadriddin Ayniy esa madrasalardagi ta’limning

eskiligi va hayotdan uzilganligini tanqid qilib, islohot zaruratini ilgari suradi. U diniy ta’limga zamonaviy fanlar kiritilmasligini eng muhim muammo sifatida ko‘rsatadi. Buxoro madrasalari haqida rus sharqshunoslari, jumladan V.V. Bartold va A. Semenovlar ham o‘z tadqiqotlarida so‘z yuritib, bu muassasalarni an’anaviy, biroq islohotga muhtoj ta’lim markazlari sifatida tavsiflaydilar. Shuningdek, “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” to‘plamida ham madrasa hayoti, hujra savdosi, kutubxona faoliyati va vaqf tizimining buzilishi kabi muammolar yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Sadriddin Ayniy o‘zining “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” nomli asarida boshqa materiallar qatorida “Maktab masalasi”, “Buxoroda birinchi jadid usulidagi maktabning ochilishi”, “Maktabning yopilishiga tayyorgarlik va imtihon”, “Maktabning birinchi marta yopilishi”, “Maktab haqida qaror va bahslar”, “Rus hukumatining Buxoro islohoti, maktab masalasiga e’tibor va munosabat”, “1914 yilgi ahvol va maktablar”, “Maktablarning ikkinchi marta yopilishi” nomli alohida bo‘limlar ajratilgan [2.66]. U bu erda o‘sha davrda Buxoroda paydo bo‘lgan yangi jadid maktablarining ahvoli, ularni tashkil etgan insonlar haqida keng ma’lumotlarni keltirgan. Bu ma’lumotlarni muallif o‘z tilidan ham o‘sha voqeа va hodisalarining jonli guvohi sifatida bayon etgan. Chunki, olimning bevosa o‘zi Buxoroda jadid maktablari ochilishining tashkilotchilaridan biri bo‘lganligi uchun ham ko‘plab tarixiy voqealarning jonli guvohi bo‘lganligi aniq haqiqat hisoblanadi. Shuningdek u shu asarida: “Ta’lim usuli juda buzuq, aynigan edi. Biz hammamiz qoida bilan metodni bilmasdan qiyinalar edik. Bizni bolalarga ta’lim berishni isloh qilish (qayta qurish) muammosi qiziqtirar edi”. Sadriddin Ayniy o‘zining “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” asarida shunday deb yozadi: 1914-yili “Yosh buxoroliklar” tashkiloti tomonidan ikkita juda muhim ishga qo‘l urildi. Bular “Buxoroyi sharif” va “Turon” gazetalarining yopilib qolishi munosabati bilan ularning o‘rnini to‘ldirish, aholini turli yangi adabiyotlar, gazeta-jurnallar bilan ta’minlash maqsadida “Ma’rifat kutubxonasi” nomli kutubxona va “Baraka” shirkatining tashkil etilishidir. “Baraka” shirkati keyinchalik xalq orasida “Jadidlar shirkati” degan nomga ham ega

bo‘lgan. Sadriddin Ayniy o‘zining “Esdaliklar”ida Buxoro amirligi davridagi madrasalar hayotini ichki bir guvoh sifatida, chuqur kuzatuvchi va tanqidiy tafakkur egasi sifatida tasvirlab bergan. Asar o‘z davrining ijtimoiy-ma’naviy muhitini, ayniqsa, madrasa tizimidagi kamchiliklarni ochib berishi bilan ajralib turadi. Sadriddin Ayniyni o‘sha davr tarixchilari orasida madrasa ta’limini batafsil yoritgan yagona tarixchi sifatida ko‘rishimiz mumkin. Biz quyida Buxoro amirligidagi madrasalar ta’lim tizimini uning asarlari orqali tahlil qilishga harakat qilamiz. Buxoro madrasalari. Buxoro madrasalari O‘rta Osiyoning boshqa hududlaridagi madrasalarga o‘xshab asosan, pishiq g‘ishtdan ikki yoki bir qavatli qilib qurilgan (ularning ba’zilarining qavati undan ham ko‘p bo‘lgan). Madrasalar tashqi tarafdan judayam chiroyli, keng sahnli, baland va mustahkam devorlarga ega bo‘lgan. Ularning ba’zilari peshtoqli va devorlari koshinkor qilib bezalgan edi. Shunday bo‘lsada, madrasalarning ichki qismi yani hujralar judayam tor, qorong‘u (hatto ba’zilari shunday kichik ediki, uyerda engashib yurishga to‘g‘ri kelardi) bo‘lib, ko‘pchiligidida ikki kishi zo‘rg‘a qolardi. ”Bu hujralarning ko‘pchiligi bir eshiklik va oldi ravoqlik bo‘lib, odam ham, havo ham, ziyo ham o‘sha bir eshikdan kiradi. Osh pishiriladigan o‘choq, suv idishi, yuz-qo‘l yuviladigan joy, ko‘mir,, o‘tin, ko‘pincha moy, guruch, sabzi-pyoz kabi oziq - ovqat zapaslari ham shu tor hujraga joylashtirilar edi”. Muallif madrasalarning bu xil ko‘rinishini, ya’ni tashqi tarafdan qaralganda hashamatli, ichki tarafi esa tor va qorong‘uligini amir hokimiyatiga quyidagicha qiyoslaydi: “...chirigan feodalizmning zohirda “tantanali” va botinda buzg‘un, jirkanch bo‘lgan tuzumiga tom ma’nosi bilan o‘xshardi”. Muhammad Ali Baljuvoniy o‘zining “Tarixi nofeiy” asarida Buxoro amirligida 400 ta madrasa borligini aytib, ulardan o‘zi bilgan 79 ta madrasaning nomi bilan sanab keltiradi. Shuningdek, asarda amirligidagi mudarrislar soni 800 nafar, madrasalarda tahsil oluvchi talabalar soni esa taxminan uch-to‘rt ming nafar ekanligi qayd etilgan. Madrasalar faoliyati uchun kerakli mablag‘lar ularga ajratilgan vaqf mulklari orqali qoplanardi. Hukmdorlar va boy zodagonlar doimiy ravishda daromad keltiradigan o‘zlariga tegishli hammom, bozor, do‘kon, saroy, ekin ekiladigan yerlar va shunga o‘xshagan ko‘chmas mulkclarini madrasalarga vaqf qilib bergenlar. Dastlab madrasa hujralarining sotuvga

qo‘yilishi mumkin bo‘lman. Madrasa va unga tayin qilingan vaqflarning vaqfnomalarida arabcha so‘zlar va diniy iqtiboslar bilan quyidagilar yozib qo‘yilgan: “Sotilishi, sotib olinishi birovga bag‘ishlanishi, birov foydasi uchun vasiyat qilinishi va merosga qoldirilishi mumkin emas. Bu so‘zlarga amal qilmay, vaqf qoidasini o‘zgartirgan kishi Xudoning la’natiga, payg‘ambarlarning va butun maloikalarning la’nattiga uchragay...” Lekin bora bora amirligidagi madrasalar xususiylashtirilib, hujralar savdosi odatiy holga aylangan. Buxoro amirligidagi Ashtarxoniyalar sulolasi boshqaruvining so‘nggi davrlari ayniqsa, Abulfayzxon davriga kelib, amirligidagi madrasalarning ahvoli ayanchli holga kelib qoladi. Ayniy o‘sha davr madrasalarini quyidagicha tasvirlaydi: “Samarqand madrasalari ko‘chmanchilarning og‘ilxonalariga va Buxoro madrasalari qalandarlar, sarsarilar, gadoylar va g‘ariblar turadigan vayronaga aylangan edi. Bu har ikkala shaharning madrasa hujralarida eshik, darparda kabi yog‘ochdan yasalgan buyumlari qolmagan va u hujralarning pishiq g‘ishtdan bino bo‘lgan qismlari, eski sag‘onalar shaklini olgan edi”. Bu hol mang‘it xonadoni vakili Amir Shohmurodgacha davom etadi. Amir Shohmurodning ilmga va dinga rag‘bati kuchliligidan amirligidagi madrasalar islohotini amalga oshiradi. Savdo-sotiqni rivojlantirib, yangi vaqflar joriy qildirdi va yo‘qolib ketganlarini qayta tiklattirdi. Lekin madrasalardagi hujralarning ahvoli shunchalik xarob ediki, ularni butunlay ta’mir qilish uchun vaqflardan keladigan daromad yetishmas edi. Bu muammoni hal qilish maqsadida Amir Shohmurod bir farmon chiqaradi. Unga ko‘ra, biror bir talaba madrasa hujrasini o‘z mablag‘i evaziga ta’mirlasa va obod qilsa, o‘sha hujra uniki bo‘lar edi va har vaqt talaba hujrasini tark etmoqchi bo‘lsa, hujrani ta’mirlash uchun ketgan mablag‘ini boshqa bir talabaga berib hujrani uning nomiga o‘tkazib berar edi. Keyinchalik, vaqf yerlari obod bo‘ldi, savdo-sotiq, tijorat rivoj topib, vaqfga tegishli mulklar (saroy, do‘kon, tijoratxonalar)dan keladigan foyda ortib, madrasa hujralarining ham vaqfdan keladigan daromadi ko‘payib bordi. Bu holat keyinchalik madrasa hujralarining narxi oshishiga olib keldi. Endi hujralarni olish va berishda ta’mir pulining o‘zi kifoya qilmay qo‘ydi. Hujralarning narxi vaqfdan keladigan daromad evaziga ortib bordi. Undan tashqari bu paytga kelib hujralarni olish uchun talaba bo‘lish shart

bo‘lmay qoldi, ko‘plab boylar va sudx‘orlar madrasalardagi hujralarni birdan o‘ntagacha sotib olib ularni savdosi bilan shug‘ullanadigan bo‘ldilar. Sadriddin Ayniy o‘zining “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” asarida shunday deb yozadi: 1914-yili “Yosh buxoroliklar” tashkiloti tomonidan ikkita juda muhim ishga qo‘l urildi. Bular “Buxoroyi sharif” va “Turon” gazetalarining yopilib qolishi munosabati bilan ularning o‘rnini to‘ldirish, aholini turli yangi adabiyotlar, gazeta-jurnallar bilan ta’minlash maqsadida “Ma’rifat kutubxonasi” nomli kutubxona va “Baraka” shirkatining tashkil etilishidir. “Baraka” shirkati keyinchalik xalq orasida “Jadidlar shirkati” degan nomga ham ega bo‘lgan. 1883-1884-yillardan boshlab Buxoro ziyorilari Ismoilbek Gaspirali asos solgan “Tarjumon” gazetasi orqali jadid maktablari, jadidchilik harakati va ularning islohotchilik g‘oyalari haqidagi materiallar bilan tanishib borgan. Sababi 1884 yili shu gazetaning 1000 obunachisining 200 tasi Turkistondan bo‘lgan. Olimning yozishicha, 1905-yildan boshlab “Tarjumon” gazetasi faqat tatar tilida chiqqa boshlagan. Sadriddin Ayniyning yozishicha, Buxoroda birinchi yangi usuldagagi jadid maktabini 1900- yilning boshlarida mahalliy ziyoli Mulla Jo‘raboy Pirmastiy degan kishi tashkil etgan. Lekin bu maktab ko‘p o‘tmay yopib tashlangan. Mulla Jo‘raboy Pirmast tumanida tug‘ilib, o‘z vaqtida Rossiyyadagi yangi usul maktablarini borib ko‘rib kelgan va Buxoroning Po‘stindazon (po‘stin tikuvchi) guzarida yangi usuldagagi maktabini ochgan. Buxoroda tashkil etilgan yangi usuldagagi maktablar faoliyati samarali bo‘lishi uchun darslik, o‘quv qo‘llanmalarini zarur edi. Shulardan kelib chiqib va Samarqanddagi yangi usuldagagi maktab tashkilotchilaridan biri bo‘lgan A.Shakuriyning maktabidagi ta’lim-tarbiya ishlari bilan tanishgan S.Ayniy tojik tilida “Tartil-ul Qur’on” (Qur’oni to‘g‘ri o‘qitish haqida), “Zaruriyati diniya” (Diniy yo‘liyo‘riqlar), “Tahsib-us-sibyon” (Bolalar tarbiyasi) kabi darsliklarini yaratadi va bu kitoblar “Yosh buxoroliklar” tomonidan tuzilgan “Buxoroyi sharif” shirkati yordamida dastlab 1909 yili Orenburg shahrida nashrdan chiqadi. O‘scha davrda Samarqand shahrida yangi usuldagagi jadid maktablari eng avvalo tatar ziyorilari tomonidan tatar tilida ta’lim beruvchi maktablar sifatida ochilgan va ular ko‘plab yangi usuldagagi maktablarga namuna bo‘ldi. S. Ayniyning o‘zi ham o‘zining yangi usuldagagi maktabini ochishdan oldin, 1908-yili tatar

maktablarida ishlab, dars berish va o‘qitish usullarini o‘rganganligini “Tatar maktabida olti oy ishlab, tajriba orttirdim” deb yozadi. Bu kitoblar orasida “Tahsib-us-sibyon” (Bolalar tarbiyasi) pedagogika fani uchun muhim ahamiyatga ega. Bu asarni muallif Ismoil Gaspralining “Xo‘jai sibyon” (Bolalar muallimi) nomli kitobidan ta’sirlanib, unga taqlid qilib yozgan. Asarda o‘sha davrlar uchun dolzarb bo‘lgan ko‘plab pedagogik g‘oyalar ilgari surilgan. Bu kitob 1917-yili Samarqandda “Ma’rifat kutubxonasi” nomli nashriyotda chop etilgan [2.67]. Buxorolik ayrim eskicha fikrlovchi, reaksion guruhlari S.Ayniyning bu darsligidagi erkinlikni sevuvchi oldingi qatordagi fikrlarni sezgandan keyin Buxoro amiriga arz qilib, shu darslikdan foydalanib darslar o‘tilayotgan maktablarni yoptirishga erishadi. Biroq yangi usul maktablarining tarafдорлари “Bolalar tarbiyasi” (“Tarbiyai atfol”) nomli yashirin jamiyat tuzadilar. Jamiyatning asosiy maqsadi aholini savodli qilish, xalq ommasi orasida kitoblar tarqatish, isrofgarchilik va salbiy odatlarga qarshi kurash olib borish, salbiy illatlarga qarshi targ‘ibot ishlarini olib borishdan iborat edi. Bu jamiyat yangicha o‘qitadigan maktablarni yashirinchcha ochib, bolalarni o‘qitib, savodli qilgandan so‘ng Orenburg, Ufa, Qozon, Qrim va boshqa shaharlarga o‘qishini yana davom ettirishlari uchun yuborar edi. 1917 yilgi to‘ntarishdan keyin Sadriddin Ayniy xalq ta’limi muammolari bilan bevosita shug‘ullana boshladi. U Samarqand shahrining Qo‘ssovuz mahallasida bir sinfdan iborat maktab ochib, yosh avlodga ta’lim-tarbiya bera boshladi. Uning bu maktabi sakkizinchchi sinf miqyosida ta’lim berar edi.

Natija va munozaralar

Maktabda Sadriddin Ayniyning o‘zi o‘zbek tili va adabiyoti, tojik tili va adabiyoti, tarix, she’riyat, mehnatdan saboq bergen. Shuning bilan bir qatorda o‘zi darsliklar tuzdi. Xususan, o‘zbek, tojik maktablari uchun ona tili va adabiyotidan darsliklar yaratish ishlarida ishtirok etdi. Qizlar maktabi uchun yozgan “Qiz bola yoki Xolida” nomli o‘quv kitobi shu darsliklardan biri bo‘lib, yangi usuldagagi maktablarda keng foydalanib keltingan. Sadriddin Ayniyning bevosita tashkilotchilik harakati bilan Buxoroda dastlab tojik tilida “Buxoroi sharif”, keyinchalik o‘zbek o‘quvchilarining ko‘pligi hisobga olinib, o‘zbek

tilida “Turon” gazetalari tashkil etildi va bir qancha muddat xalqni savodxon qilish ishlariga xizmat qildi.

Talabalar jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlariga mansub edi. Ularning ba’zilari o‘ziga to‘q xonadon vakillaridan, ba’zilari o‘rta hol ba’zilari esa kambag‘al oila farzandlari edi. Kambag‘al talabalarning shaharga kelib yashash uchun joy topishlari juda qiyin masala edi. Buxoroga o‘qish uchun kelgan talabalarning agar qolishga joylari bo‘lmay qo‘llarida yetarli mablag‘lari bo‘lsa, bemalol hujralardan birini sotib olib yashashlari mumkin bo‘lgan. Agar talabaning qo‘lida puli bo‘lsayu, hujra sotib olishga yetmasa, u holda bunday talabalar hujralarni ijaraga olib yashashlari mumkin bo‘lgan. Hujralarni ijaraga olib yashash “istiqomati garav” deb yuritilgan. Hujralarning ijara haqi ularning holati va shaharning markaziga qay darajada yaqin yoki uzoqligiga qarab o‘zgarardi. Bu holatda ijarachi mazkur hujradan ikki taraflama foyda olgan ya’ni birisi talabadan olgan ijara haqi, ikkinchisi esa hujraning vaqfi edi. Ba’zi o‘z hujrasiga ega talabalar pulga muhtoj bo‘lib qolsalar, hujralarini sotib yashashga joy topolmay qolishdan qo‘rqib, undan keladigan vaqfni berish evaziga puldorlardan qarz olgan. Bu holat “vaqf garav” deb yuritilgan. Hujra sotib olishga yoki ijaraga olishga qurbi yetmagan talabalar turli yo‘llar bilan hujra topib yashashgan. Ba’zi talabalar hujra egasiga muayyan vaqtarda ziyofat qilib berish sharti bilan hujrada qolganlar. Ayrim hujrador mullalar qo‘llaridagi hujralarini o‘ziga shogird bo‘lishi evaziga kambag‘al talabalarga tekinga yashash uchun bergen. Ayniy bunday mullalarni “savodsiz, shu vosita bilan “dars beradigan” mullalar qatoriga kirib, mullalikda nom chiqarib biror ilmiy mansabga ega bo‘lish” maqsadida bu ishni qilganlariklarini aytib o‘tadi. Ba’zi yo‘qsil talabalar nufuzli kishilar himoyasiga kirib, ular orqali biror hujra topib yashardi (muallif o‘zining “Esdaliklar”ida nufuzli bir tanishi Ko‘kaldosh madrasasida unga hujra hadya qilganligini yozadi). Muallifning aytishicha, bu turdagи holatlar ya’ni hujralarning talabalarga ijaraga berilishi norasmiy holat bo‘lgan. Shu o‘rinda madrasalardagi kutubxonalar haqida to‘xtalib o‘tsak. Ma’lumki, Buxoro qadim zamonlardan ilmiy markaz bo‘lib kelgan. Shuning uchun mamlakatda barcha turdagи kitoblar topilar edi. Faqat o‘sha zamonlarda hali matbaa mavjud bo‘limganligidan,

kitoblarning barchasi qo‘lyozma asarlar edi. Kitoblarni qo‘lda ko‘chirish qimmatga tushganligidan, talabalarning hammasi ham ulardan foydalana olmasdi. Shuning uchun ko‘plab madrasalarda kutubxonalar tashkil qilinadi va talabalar ulardan bemalol foydalanishi uchun sharoit yaratiladi. Ayniyning keltirishicha, yirtilgan kitoblarni to‘plash va yangilarini sotib olish uchun yettilik vaqf va kutubxona boshlig‘i uchun alohida vaqf tayinlangan. “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” asarida birgina Govkashon madrasasidagi yirtilgan kitoblarni to‘plash uchun tayin qilingan vaqfdan yiliga ming so‘m daromad kelgan. Buxoro madrasalarida yigirmaga yaqin kutubxona bo‘lgan. Sadriddin Ayniy “Esdaliklar” asarida Buxoro amirligi davridagi madrasalarning ta’lim tizimini tanqidiy tahlil qiladi. Unga ko‘ra, madrasalarda ta’lim jarayoni qadimiy va eskicha uslublarga tayangan bo‘lib, yangilikdan yiroq, tanqidiy tafakkurdan xoli bo‘lgan. O‘quv dasturlarida asosan, diniy fanlar, ya’ni arab tiliningsarfu nahvi, mantiq, aqodi islomiy(ilmi kalom), hikmat(tabiiy va ilohiy), fiqhi islomiy (tahorat, namoz, ro‘za, janoza, haj, zakot, nikoh, taloq, savdo-sotiq,qul saqlash va qul ozod qilish kabi masalalar) kabilar asosiy o‘rin tutgan. Ammo bu fanlar ham ko‘p hollarda yodlash asosida o‘rgatilgan, mavzularni tahlil qilish yoki bahs yuritish madaniyati sust bo‘lgan. [3.97]. Sadriddin Ayniy madrasalardagi fanlarni o‘zgarishlarga uchramaydigan, XV-XVI asrlardan beri bir xil davom etib kelayotganini, ularga kiritilayotgan yagona yangilik yillar davomida ularga atab yozilayotgan sharh va hoshiyalar ekanligi aytadi. Umar Rashidovdan dastlabki jadidlarning hoshiyalarni madrasa darsliklaridan olib tashlash kerakligi aytilgan. Madrasalarda o‘quv yili 22 sentabrdan 22 martga qadar olti oy davomida bo‘lib, darslar haftada to‘rt kun shanba, yakshanba, dushanba va seshanba kunlari bo‘lgan. Shundayam talabalarning barchasi olti davomida to‘liq darslarga ishtirok eta olmagan. Sharoti og‘ir talabalar darslarni boshlab olgach, tirikchilik qilish maqsadida qishloqlariga qaytib ketgan yig‘im-terim ishlari tugagach, yana noyabr oyining oxirlarida darsga qatnay boshlagan. Yana fevral oyi oxiri-mart oyi boshlariga kelib yana qishloqqa qaytib ketishgan. Shunday qilib yil boshida o‘rtacha ellik kishilik guruh bo‘lib boshlangan darslar o‘n-o‘n besh kishi bilan yakunlangan. Ayniy asarda madrasadagi darslar, domlalarning dars berish uslubi va

talabalarning o‘qishga munosabati haqida aniq kuzatishlarini beradi. U talabalar umrining o‘n sakkiz- o‘n to‘qqiz yilini olgan madrasa ta’limidan biror bir tayinli ilm olinmasligi haqida gapirib bunda ta’limdagi kamchiliklar, talabalarning vaqtini noto‘g‘ri taqsimlanganligi yoxud ularning vaqtini bexuda sarf qilishiga sabab bo‘lgan omillarni keltirib o‘tadi. Masalan, arab tilining sarfu nahv darslari sakkiz yil davomida o‘tilishiga qaramasdan talabalarning deyarli birortasi dars oxirida arab tilida gapirishni yoki o‘qishni bilmagan. Chunki darslar ko‘r-ko‘rona yodlashga asoslangan edi. Undan tashqari darslar shunchaki keraksiz munozaralar bilan o‘tib ketgan. Ko‘plab domlalar darsni jonli va tushunarli o‘rgatmasdan, faqat matnni o‘qib berish bilan cheklangan. Talabalardan esa faqatgina matnni yodlab olish talab qilingan. Bu holat ilmiy tafakkurni rivojlantirishdan ko‘ra, so‘zlarni mexanik yodlashga olib kelgan. Shu sababli talaba ko‘p hollarda mazmunni anglamay, tushunmay o‘qigan bo‘lsa-da, madrasani tugatgan hisoblangan. Shunga qaramay, Sadriddin Ayniy madrasalarda bilim olishga intilgan, oz bo‘lsada, chin dildan ilmga xizmat qilgan domlalarni ham tilga oladi: “Buxoro madrasalaridan ba’zi ma’lumotli kishilar ham yetishib chiqqanlar. Lekin bunday odamlar, u yerda yolg‘iz yetishib chiqqan hosildor butalarday juda oz bo‘lib, ular Buxoro madrasalaridagi dars programmalarini o‘tish va unda bo‘ladigan munozaralar vositasi bilan yetishmaganlar, balki o‘zları favqulodda qobiliyatli kishilar bo‘lib, baxtli bir tasodif bilan, tojikcha va arabcha savod chiqarib, o‘z shaxsiy mehnat va mutolaalari soyasida ma’lumot hosil qilganlar. Ammo bunday ma’lumotli kishilarning ko‘plari ham biror ma’naviy g‘oyadan uzoq bo‘lib, ularning asosiy maqsadlari ustozlari kabi biror madrasada mudarrislik qilish va o‘z oldilariga talaba to‘plash, ular bilan xoh biror narsani tushunsalar, xoh tushunmasalar ertadan kechgacha dars va munozara ostida shovqin-suron ko‘tarish, shu vosita bilan ulardan iftitohona (dars boshlash munosabati bilan har yili talabalar tomonidan o‘zaro mablag‘ yig‘ilib, yangi dars boshlash munosabati bilan domлага beriladigan sovg‘a- salomlar.) undirish va katta “darsgo‘ylik”da nom chiqarib yana ham kattaroq madrasada mudarris bo‘lishdan nariga o‘tmasdi”. Bu bilan u tizimdagи muammolarni faqat shaxsiy emas, balki tizimli deb ko‘rsatishga urinadi. Ayniy tomonidan

keltirilgan misollar orqali o'sha davrda madrasaning ijtimoiy institut sifatidagi o'rni, uning jamiyatdagi obro'si va ayni paytda real samarasizligi ochiladi.

Tavsiya va xulosalar

Xulosa qilib aytganda, Buxoro jadid namoyondasi, iste'dodli pedagog Sadriddin Ayniyning ushbu asarlari orqali Buxoro amirligining ijtimoiy hayotida kechgan murakkab jarayonlar, ayniqsa ta'lim tizimidagi inqiroz, amirlik davrining madaniy manzarasi, ijtimoiy qatlamlar orasidagi tafovutlar va ma'naviy muhitning zaiflashuvi aniq ko'rindi. Bu tarixiy manbalar zamonaviy tadqiqotlar uchun nafaqat tarixiy ma'lumotlar ombori, balki tarixiy tafakkur va ijtimoiy ong rivojini o'rganish uchun ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Farzandlarimizni har tomonlama barkamol, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq insonlar etib tarbiyalashda taraqqiyatparvar ajdodlarimizning aql-zakovati, iroda va matonati barchamiz uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi. Biz ma'rifatparvar bobolarimizning muqaddas orzularini ro'yobga chiqarish uchun mamlakatimizda yangi Renessans poydevorini yaratishni strategik vazifa qilib belgilaganmiz. Shu maqsadda ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat sohalarida tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Bu borada avvalo ta'lim tizimini zamon talablari asosida tashkil etish, o'qituvchi va murabbiylarning jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ta'sirini kuchaytirishga ustuvor ahamiyat qaratmoqdamiz. Jadidlaring butun faoliyatları, islohotlari, yangiliklari, yoshlarga milliy qadriyatlarni singdirish barobarida yangi, zamonaviy bilimlar berish haqidagi fikrlari, yozgan darsliklari-yu, gazeta-jurnallariga millatni mustaqillik sari yetkalash uchun edi. Shu sababli jadidlarni Yangi O'zbekistonning ma'naviy asoschilari desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Ayniy S. Esdaliklar. 4 qism. (Asarlar.8 jiddlik, 7 jild, T.: 1966. 153 b.)
2. F.Temirov. Sadriddin Ayniy asarlarida Buxorodagi jadid maktablari va matbuot tarixi masalalari. Sohibqiron yulduzi. 2021-yil, No4, 66-bet
3. Muhammad Ali Baljuvoniy. Tarixi Nofeyi. Toshkent: Akademiya” nashriyoti, 2001
4. Abduaruf Fitrat. Amir Olimxon va uning hukmronlik davri.
5. Sadriddin Ayniy. Esdaliklar. V tom, - Toshkent “badiiy adabiyot” nashriyoti 1965. – 311 b
6. Temirov F.U. S. Ayniyning Buxorodagi jadidchilik harakatida tutgan o’rni va ijtimoiy faoliyati. (PhD) disertatsiyasi avtoreferati.